

**YOSH OILALARDA YUZ BERAYOTGAN ERTA AJRIMLARNING  
SABAB VA NATIJALARI: OLDINI OLISH CHORA-TADBIRLARI**

**Mamatov Asqarali Xolto‘ra o‘g‘li**

*O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Qashqadaryo  
viloyati bo‘yicha boshqarmasi harbiy xizmatchisi*

*Tel: +998945190524*

Oila – arabcha so‘zdan olingen bo‘lib, “bola-chaqa, xonodon; urug“, avlod” degan ma’nolarni anglatadi. Qadimdan oila sharqda jamiyatning muhim bir bo‘g‘ini sifatida alohida e’tibor berilib kelingan. Oila vujudga kelishi va uning mustahkam bo‘lishi uchun nafaqat ikki shaxsning, balki, atrofdagi insonlarning ham fikr-mulohazalari, munosabatlari muhimdir. Sharqda oila muqaddasligi haqida qarashlar miloddan avvalgi davrlarda, o‘rta asrlar mutafakkirlari asarlarida, jadid adabiyoti durdonalarida va albatta, hozirgi kungacha saqlanib kelayotgan eng dolzarb mavzu desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Chunonchi, zardushtiylikning bosh kitobi “Avesto”da ham nikoh, oila, turmush, er-xotin munosabatlari kabi mavzularda to‘xtalib o‘tilgan. Abu Rayhon Beruniyning “Fozil odamlar shahri” asarida, Yusuf Xos Hojib, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiylar ijodida ham oilaviy munosabatlar batafsil yoritiganini ko‘rib o‘tishimiz mumkin.

Oila qadimdan muqaddas dargoh sanalar ekan, bugungi kunda afsuslar bo‘lsinki, oilaning mazmun mohiyatini anglashga ulgurmasdanoq, yuzaga kelayotgan ajralishlar sabab va oqibatlari haqida fikr yuritsak. Avvalo, oiladagi erta ajrimlarga quyidagilarni sabab sifatida keltirishimiz mumkin.

1. Ertा turmush.
2. Ijtimoiy tarmoqlar va filmlarning er-xotin munosabatlariga ko‘rsatayotgan salbiy ta’siri.
3. Qarindoshlar orasidagi nikohdan tug‘iladigan nuqsonli farzandlar yoki farzandsizlik muammosi.
4. Qaynona-kelin munosabatlari va h.k.
5. Noto‘g‘ri tarbiya va h.k.

Dastlab keltirib o‘tgan sababimiz *erta turmush* hozirgi kunning eng dolzarb va keng tarqalgan muammolaridan biri hisoblanadi. Hali o‘zi bolalikni tark etmagan ikki “go‘dak”ni to‘satdan oilalar kelishuvi asosida turmush qurishga “ko‘ndirish”lari (ta‘bir joiz bo‘lsa, majbur etishlar) oqibatida turli xil nizolar, kelishmovchiliklar kelib chiqadi. Bunday holatlarda ota – onalar farzandlarining baxtidan ko‘ra ko‘proq o‘z qulayliklarini o‘ylashadi. Farzandim voyaga yetdi, qimizni uzatsam, o‘g‘limni uylantirsam-u, yelkamdagи “yuk” yengillasa, qizlarning oilalarida tezroq egasiga topshirsam qabilidagi fikrlar bo‘ladi. Vaholanki, ikki yosh bir buyum emaski, ularga kasb-hunar, ilm-ma’rifatsiz bo‘lgani holda oila bo‘lish mas’uliyatini yuklashadi. Xalqimizda “Turmush – musht” degan gap bejizga paydo bo‘lmagan. Undagi yaxshi-yomon kunlarga, xursandchiligidu, xafagarchiliklarga, sinovli damlarga bardosh berish uchun bolani yoshligidanoq ham jismonan, ham ruhan tayyor holatga keltirib borish kerak. 18 yoki 19

## MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

yoshga kirdi, hamma uy yumushlarini eplay oladi, 20 yoshga to'ldi, yaxshi pul topadi degani ularning ruhiy holati oilaga tayyor degani emas. Shu sababli ham erta turmushni oldini olish maqsadida davomli chora-tadbirlar *oila-maktab-mahalla* hamkorligida amalga oshirilmoqda. Natijada bu muammoni bartaraf etish orqali oilalar mustahkamligiga tiklanadi hamda yuz berishi mumkin bo'lgan ajrinlarning oldi olinadi.

Ikkinchisi *ijtimoiy tarmoqlarning er-xotin munosabatlariga ko'rsatayotgan salbiy ta'siri*. Deyarli, har 4 ta oilaning 3 tasida yuzaga kelayotgan muammolarning asosiy sabablaridan biri ham shu omil sanaladi. Ajralishlar, juda bo'limganda inqirozli yoki notinch vaziyatlarning sababi ham ijtimoiy tarmoqlar muammosi hisoblanadi. bugun eng o'g'riqli nuqtaga aylanayotgan vaziyat: yoshlarning ijtimoiy tarmoqlarda haddan tashqari faolligi. Ko'p vaqtini oila davrasida emas, gadjetlar bilan o'tkazayotlganligi, bunga ota-onalarning befarqligi, ijtimoiy tarmoqlarda "do'st sifati"da degan vaj ostida boshqalar bilan yozishishlari oqibatida er-xotinlar orasida ishonchszilik munosabatlarining paydo bo'lish holatlari, yoshlarning ijtimoiy tarmoqdagi mashhurlar, blogerlar yoki vaynerlar hayotiga taqlid qilishlari, o'zлari ijtimoiy tarmoq orqali kuzatayotgan "kumerlari"ning hayotidagi barcha qulayliklarga intilishlari, o'z juftlaridan shu narsalarni talab qilib, agar vaziyat bo'lmay qolgan vaqtarda erkaklarning o'z ayollar shaxsiyati, g'ururi toptalishi holatlari orqali ham nizoli vaziyatlar va eng og'ir hollarda ajrimlar yuzaga kelmoqda.

Uchinchi holat *qarindoshlar orasidagi nikohdan tug'iladigan nuqsonli farzandlar yoki farzandsizlik muammosi*. Bunday holatlar ham afsuski, hali-hanuz hayotimizda tez-tez ko'zga tashlanyapti. Aksariyat hollarda oiladagi yoshi ulug'lar bunga sabab bo'lishayotganligi hech kimga sir emas. *Bordi-keldi yo'qolmasin, oralaring uzilib ketmasin, o'zimni qariganimda menga parvona bo'ladi* degan bahonalar bilan ikki yoshning hayotlariga o'z chegaralarini chizishmoqchi bo'lishadi. Ahil-inoq bo'lib, yashab ketishsa, nur ustiga a'lo nur, ammo qarindoshlik tufayli nuqsonli farzandlar dunyoga kelsa, eng yomoni farzandsizlik yuzaga kelsa, uning jabrini butun boshli oila a'zolari birgalikda tortishi haqida ham o'ylab ko'rishsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

To'rtinchi holat *qaynona-kelin munosabatlari* ham muhim jihat hisoblanadi. xalqimizda *qaynona qaynamasa, kelin aynimaydi* degan yaxshi bir naql bor. Hozirgi vaqtda zaonaviy qaynonalar hali o'zлari kelinlik davridan o'tar-o'tmas o'g'il uylantirib qo'yishadi va og'ir-bosiqlik bilan ish yuritish lozimligini unutib qo'yishadi ba'zida. Bunday vaiyatlarda eng katta yuk yosh oiladagi kuyovning zimmasiga tushadi. Onasi va hali oilaga ko'nikib ulgurmagan ayoli orasida tarozi vazifasini o'tash ham uning mahoratiga bog'liq bo'ladi.

Va nihoyat oxirgisi *noto'g'ri tarbiyadir*. Bu omilni eng oxirida ta'kidlab o'tishimizning ham ma'lum sabablari bor aslida. Yuqorida sanab o'tgan muammolarning bosh negizi oiladagi noto'g'ri tarbiya oqibatida yuzaga keladi. Abdulla Avloniy aytganidek, "Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, ho najot, yo falokat, yo saodat, yo falokat masalasidir" g'oyasiga amal qilib, uni o'zimizga maslak qilib oladigan bo'lsak, oilada hamma o'z o'rniga o'z vazifasiga ega bo'lsa, farzandlarning ruhiy holatlariga e'tibor qaratib, ular bilan do'stona munosabatni yuzaga keltira olishga erishilsa, xunuk vaziyatlar yuzaga kelmaslik ehtimoli ortadi. Zero, prezidentimiz tabiri bilan aytganda,

## MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

“Oila - jamiyatning poydevori”. Fikrimiz isboti sifatida 2024 yil 24 iyul kuni muhtaram prezidentimiz tavalludining 61 yilligi munosabati bilan ijtimoiy tarmoqlarda efirga uzatilgan “Janob Prezident” hujjatli filmida yurtboshimiz tomonidan oila haqida aytilgan quyidagi fikrlarini aytib o’tsak: “*Oila men uchun muqaddas. Muqaddasligi shuki, avvalambor qayerda ishlashidan qat’i nazar, kim bo’lishidan qat’i nazar agar oilada tarbiya, oilada muhit, oilada halollik, munosabat, tarbiyaga alohida e’tibor bermasa, hech qachon natija bo’lmaydi. Shuning uchun men farzandlarimning tarbiyasiga juda katta e’tibor beraman. Har bir farzandimga ham, nevaramga ham alohida o’zimning munosabatim bor. Har bir nevaramning alohida xarakterini bilaman, orzusini, istagini bilaman*”.\* Shundan ham ko’rishimiz mumkinki, oila mustahkamligi Yangi O’zbekistonda davlat siyosati darajasiga olib chiqilganini. Fikrimiz so’ngida shuni aytib o’tishni joiz topdikki, oila bu bir qo’rg’on, uni har xil tashqi ta’sirlar, yot kuchlar hujumidan asrash uchun uning har bir a’zosi mushtaraklikda harakat qilishi, muammolarni birga hal eta olishi, bir-birlariga ma’naviy yaqin bo’lishlari joiz.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. A.Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. ziyo uz kutubxonasi.
2. Абдурауф Фитрат. Оила ёки оилани бошқариш тартиблари. – Т.: «Маънавият», 1998.
3. D. Abdullaeva, R. Yorqulov, N. Atabaeva. Oila psixologiyasi. Toshkent 2015. 256 б
4. Ўзбек тилининг изоҳли лугати, V жилдли. III жилд. – Тошкент: Ўзбекистон нашриёти, 2020. – 688 б.
5. <https://www.gazeta.uz/oz/2018/07/25/prezident/>